

AHOLINING HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Qurvonaliyev Jasurbek Qodirjon o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lif fakulteti
“70420116 – Moliyaviy-huquqiy monitoring” mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqola orqali jamiyatdagi korrupsiyaviy omillar, korrupsiyaga qarshi kurashishda mamlakatimiz aholisining ahamiyati, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish chora-tadbirlari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat turlari, manfaatlar to‘qnashuvi, shaxsiy manfaatdorlik.

Bugungi kunga kelib, xalqaro iqtisodiyotga korrupsiyaga oid jinoyatlarning sodir etilishi oqibatida yetkazilayotgan zararning tobora ortib borayotgani natijasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini yanada keng taddiq etilishi, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

BMT Bosh kotibi A.Gutterish tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga asosan, jahon hamjamiyatida har yili 1 trillion AQSH dollari hajmida pora berish va olish holatlari sodir etiladi. Dunyo iqtisodiyoti har yili korrupsiya tufayli 2,6 trillion AQSH dollaridan ortiq mablag'dan ayrıldi, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foizini tashkil etadi¹.

B.Xodjayevning fikricha esa, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi²:

Birinchi yo‘nalish – korrupsiyaga qarshi kurashning preventiv choralari samaradorligiga erishish. Mazkur yo‘nalishga ko‘ra, korrupsiyani oldini olishning nazariy poydevori “ta’lim, xabardorlik va targ‘ibot” (Education, Awareness and Advocacy) tamoyillariga asoslanib, amaliy tomondan esa “samaradorlik, shaffoflik va hisobdorlik” (effectiveness, transparency, accountability) tamoyillari asosida aniq davlat siyosatini ishlab chiqishdan iborat. Bu borada davlat siyosati dunyoda (xususan, Singapurda) “one size fits all” (“barcha uchun bir xil mezon”) modeli asosida ishlab chiqilib, korrupsiyaga qarshi kurashishning aniq huquqiy mexanizmi, samarali institutsional tuzilmasi, moliyaviy va mehnat resurslari bilan doimiy ta’minlab

¹ Corruption is costing the global economy \$3.6 trillion dollars every year” 2018. [Электрон манба]. URL: <https://www.weforum.org/agenda/2018/12/theglobal-economy-loses-3-6-trillion-to-corruption-each-year>

² <http://uza.uz/oz/programs/korruptsiya-zhamiyat-kushandasi/zbekiston-korruptsiyaga-arshiandaykurashmo-da-17-01-2019/168>

turilishi, muntazam monitoring faoliyati hamda xolis va shaffof baholash tizimi ko'rsatilish lozim.

Ikkinchisi yo'naliish – korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasida intergatsiyalashgan yondashuvni qo'llash. Bunda davlat organlarining fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan hamjihat faol harakatini ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda milliy tuzilmalarning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini yanada kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Bu borada O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida integratsiyaga erishishga to'sqinlik qilayotgan omillardan biri – aniq statistika va maqbul dalillarga asoslangan ma'lumotga tayangan holda ish olib borish tizimining mavjud emasligi hisoblanadi.

Uchinchi yo'naliish – jamiyatning har bir sohasida, xususan, tadbirkorlik, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish, korrupsiya bilan bog'liq ayrim hattiharakatlarni kriminalizatsiyalash hamda xalqaro standartlarni to'liq va to'g'ri qo'llash. Bu borada xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan "noqonuniy boylik orttirish", "uchinchi shaxslarning moddiy manfaatlarini ko'zlab ta'magirlilik qilish" kabi hatti-harakatlarni kriminalizatsiya qilish masalalarini ko'rib chiqish vaqt keldi, deb o'ylaymiz.

To'rtinchi yo'naliish – korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturining bajarilishi. Bu borada monitoring jarayonida samarali huquqiy mexanizmning yetarli emasligi, davlat xizmatchilarining etika qoidalariga rioya qilish darajasining pastligi, davlat organlari faoliyati ochiqligi tamoyilining amalda nomigagina ishlayotganligi kabi masalalar hal qilinishi lozim.

Va nihoyat, beshinchi yo'naliish – korrupsiyaga qarshi kurashishning amonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib amalda real ishlaydigan strategiyani ishlab chiqish. Zamonaviy tendensiyaga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashish uch bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqich – jamiyat a'zolari faolishtirokini kuchaytirish uchun ma'lumotlarni erkin olish imkoniyatini yaratish; ikkinchi bosqich – yangi texnologiyalardan foydalangan holda korrupsiya holatlari haqida axborot berish va oldini olish; uchinchi bosqich – korrupsiyaga oid muammolarni hal qilish va bartaraf etishda jamoyatchilik ishtirokini ta'minlashning aniq tizimining amalda ishlashi.

Huquqiy ong bu – qonunga, davlat organlari faoliyatiga, shuningdek, shaxslarning huquqiy tartibga solish sohasida sodir etilgan harakatlariga munosabatni ifodalovchi g'oyalar, his-tuyg'ular yig'indisidir. Huquqiy ongning ijtimoiy ong shakli sifatidagi o'ziga xosligi uning odamlarning ijtimoiy va individual hayotining intellektual ifodasi ekanligida namoyon bo'ladi. Huquqiy ong huquq tizimining quyidagi elementlari bilan chambarchas bog'liq: huquqiy normalar, huquqiy tamoyillar, huquqiy munosabatlar, huquq ijodkorligi jarayonlari va boshqalar.

Huquqiy madaniyat – huquqiy ongni amalga oshirish. Boshqacha qilib aytganda, huquqiy madaniyat – bu huquq ijodkorligi faoliyati natijalarida qonunlarning sifati va

asosliligi, huquqni qo'llash jarayonida huquqni muhofaza qilish va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xulq-atvor madaniyati ifodalangan obyektivlashtirilgan huquqiy ongdir, yuridik institutlarning sud, prokuratura va boshqalar faoliyatida, shuningdek, oddiy fuqarolarning xatti-harakatlarida namoyon bo'ldi.

Huquqiy madaniyatning turlari uning tashuvchisiga qarab ajratiladi:

- 1) Jamiyatning huquqiy madaniyati;
- 2) Guruhning huquqiy madaniyati;
- 3) Shaxsning huquqiy madaniyati.

Jamiyatning huquqiy madaniyati deganda butun jamiyatning huquqiy faolligi va ong darajasini bildiruvchi umumiylar madaniyatning ma'lum bir qismi. Keng ma'noda jamiyatning huquqiy madaniyatini ma'lum bir davr uchun to'plangan barcha huquqiy bilim va tajribalar yig'indisi sifatida belgilash mumkin.

Jamiyat huquqiy madaniyatining rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar:

- qonunchilikning rivojlanish darjasи;
- huquqiy normalarni talqin qilish sifati;
- aholining huquqiy faoliyati;
- huquqiy bilimlarga talab darjasи va mavjudligi;
- huquq normalarida umuminsoniy va milliy tamoyillarning o'zaro bog'liqligi;
- qonun hujjalari talablariga subyektlar tomonidan rioya qilish darjasи;
- ijtimoiy guruhning huquqiy madaniyati - bu ma'lum bir ijtimoiy guruhning huquqiy ongi va huquqiy xulq-atvori darajasining holati.

O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Buning uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'radi, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta'limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo'li bilan zarur chora-tadbirlarni ko'radi.

Qonunchilikda davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, davlat organlari va boshqa tashkilotlar o'z mansabdar shaxslarining hamda boshqa xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan, huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rishi majburiy etib belgilangan. Misol sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagи PF-6257-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021–2022-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturida korrupsiya davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligini aholi va davlat xizmatchilari ongiga singdirish alohida vazifa sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida (2017-yil 22-dekabr) bugungi kunga qadar davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning aniq huquqiy mexanizmlari yaratilmagani ta'kidlagan edi. Bu NNT tomonidan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatini xolisona baholashga xalaqit bermoqda. Shundan kelib chiqib, davlat va jamiyat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etish maqsadida, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish zarur ekanligini qayd qilgan edi³⁶⁶. Shu ko'rsatmaga asosan, 2018 yil 12 aprelda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Qonunda jamoatchilik nazoratining subyektlari (kimlar nazoratda ishtirok etishi); jamoatchilik nazoratining obyektlari (kimlar va nimalar nazorat qilinishi); jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari; jamoatchilik nazoratining shakllari belgilab qo'yildi. Avvalgi bandlarda qayd qilinganidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va NNT jamoatchilik nazoratining subyektlari qatoriga kiritildi.

Huquqiy jamiyatda bosqichma-bosqich shakllanib boradigan shaxsning ehtiyojlari va manfaatlarini maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish, qonun ustuvorligini va qonuniylikni mustahkamlashning samarali vositalaridan biri sifatida ushbu tadbirlar orasida huquqiy madaniyat va huquqiy ong, huquqiy ta'lif alohida o'rin tutishi kerak. Shunday qilib, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish jamiyat a'zolari ijtimoiy-siyosiy faolligining oshishiga, jamiyatdagi islohotlarga ularning daxldorlik tuyg'usi rivojlanishiga va turli huquqbuzarlik holatlarining bartaraf etilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 dekabrdagi "Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6127-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarito'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni

³ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: "O'zbekiston", 2018 y. – b. 103-104.

3. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagи “Normativ-huquqiy hujjalarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida”gi O'RQ-860-sonli Qonuni

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagи “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6257-sonli Farmoni

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-200-sonli Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagи “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-5177-sonli Qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

8. Axrarov B.J. Boshqaruvi tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik muammolari: yurid. fan.dokt. ...dissertatsiya. – T., 2008 – B.143-146.

10. Бухарина Н.П. Коррупция в образовательных организациях: понятие и признаки // Актуальные проблемы российского права. - 2016. -№ 12. - С. 144.